

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK  
SIFATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH****Eshquvvatov Ilhom Sa'dulla o'g'li***Termiz davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar fakulteti"**"Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi o'qituvchisi***E-mail: [ilhomesquvvatov94@mail.ru](mailto:ilhomesquvvatov94@mail.ru)**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, tayanch kompetensiyalar ularning kasbiy faoliyatga tayyorlashda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish mexanizmi masalalar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsion texnologiyalar, bo'lajak o'qituvchilar, kompetensiya, kompetentlik, ilm-fan, kasbiy faoliyat.*

**KIRISH**

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, ilm-fan va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

XXI asrda pedagogika kompetentlik nuqtai nazaridan innovatsion texnologiyalarni qo'llash yondashuvi faollashmoqda. Uni amalda joriy etish esa ta'lim mazmuni, metod va texnologiyasiga yangicha yondashishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda<sup>120</sup> 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan.<sup>121</sup>

Ilm-fan va ta'lim yutuqlarini keng qo'llagan holda ta'lim tizimiga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.<sup>122</sup>

Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan o'zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining

<sup>120</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

<sup>121</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.

<sup>122</sup> Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-sonli Farmoni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.

innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayotganligi bugungi kunda dolzarb sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o'z tasdig'ini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham "...oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur, oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlarini ko'paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim" deb ta'kidlangan. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim.<sup>123</sup>

T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning yondashuviga ko'ra o'qituvchilik kompetensiyasi o'qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo'lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi<sup>124</sup>. V.N.Vvedenskiyning fikricha, "kasbiy kompetensiya" tushunchasi tarkibining kengligi, "professionallik", "malaka", "kasbiy malakalar" kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Biroq, u konsepsiya bilan birgalikda ko'rib chiqilayotgan konsepsiyani identifikatsiyalash hollari hali ham tez-tez "kompetentlik"dir. Kompetentlik – bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir<sup>125</sup>. M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologikpedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo'nalishlarning bloklarini ko'rib chiqadi<sup>126</sup>. A.V.Xutorskoy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini "sinonim ishlatilgan" tushunchalari orasidagi farqni ko'rsatadi. Kompetensiya – shaxsning o'zaro bog'liq xususiyatlarini (bilim, ko'nikma, faoliyat metodikasi), ma'lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifat jihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kompleks. G.M.Kodjaspirova "o'qituvchi malakali o'qituvchi bo'lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi kerak", deb hisoblaydi.<sup>127</sup>

<sup>123</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018-yil 28-dekabr).

<sup>124</sup> Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. – 2004. – №2. – С. 110-114.

<sup>125</sup> Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. – 2003. – №10. – С. 51-55.

<sup>126</sup> Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентност учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61. Хурской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // "Народное образование" журналы. – 2003. – № 2. – С. 58-64.

<sup>127</sup> Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: "Гардарики", 2004. – 528 с.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

## METODLAR

“Kompetensiya – bu ta'lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko'nikmaga tushmaydi; kompetentlik – bu olim yoki o'qimishli odam bo'lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko'nikma o'rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko'nikma – bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya – xatti-harakatlar, ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko'nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi. Davlat ta'lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya'ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar belgilab qo'yilgan. Ularga asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Dasturning variativ qismi ta'lim muassasasining, mintaqaning o'ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi.<sup>128</sup>

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta'lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta'lim) texnika(si)” tushunchasi “o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi” tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya baholandi.<sup>129</sup>

Innovatsiya – bu iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida qo'shimcha qiymatni ishlab chiqarish yoki qabul qilish, o'zlashtirish va ekspluatatsiya qilish; mahsulotlar, xizmatlar va bozorlarni

<sup>128</sup> Ximmataliev Do'stnazar Omonovich. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2020, 7 (92).

<sup>129</sup> TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi,, p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.n. M.Usmonboeva, p.f.n. M.Mirsolieva. “INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK”. O'QUV-USLUBIY MAJMUA. Toshkent – 2016.

yangilash va kengaytirish; ishlab chiqarishning yangi usullarini ishlab chiqish; va yangi boshqaruv tizimlarini tashkil etish.<sup>130</sup>

Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

“Innovatsiya ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro.

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”<sup>131</sup>

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud.

Ular quyidagilardir:

**2-jadval.**

**Novatsiya va innovatsiyalar o‘rtasidagi asosiy farqlari:**

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo‘llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi;
2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi;	2) ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) sub’ektlarning faoliyati to‘la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ta’lim innovatsionlari quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:

– pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;

<sup>130</sup> Innovation in American Government: Challenges, Opportunities, and Dilemmas. Brookings Inst Pr. 1997 yil 1-iyun. ISBN 9780815703587.

<sup>131</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- ta‘lim mazmunining yangilanishi;
- o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi;
- ta‘lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi;
- ta‘lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi.

“Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” tadqiq masalalari:

- innovatsion ta‘lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovatsion ta‘lim texnologiyalarining turlari va qo‘llanilish sohalari;
- innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashning pedagogikpsixologik va metodik shart-sharoitlari;
- innovatsion ta‘lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- innovatsion ta‘lim texnologiyalari: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta‘lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilarining mohiyati;
- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatleri;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari, shakl va metodlari;
- pedagogik kompetentlik potentsiali va undan oqilona foydalanish shartlari;
- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o‘quv mashg‘ulotlari, ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi;
- aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlarini shakllantirish;
- interfaol ta‘lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta‘lim texnologiyalari (amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta‘lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case-study (keys-stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ni oliy ta‘lim amaliyotiga samarali tatbiq etish ko‘nikmalarini egallashi;

### **NATIJALAR**

Ta‘lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish, so‘nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish, mutaxassislik bo‘yicha, masalan kimyo sohasidagi so‘nngi innovatsiyalar haqida ma‘lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o‘tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo‘ladi. Bizning fikrimizcha ta‘lim jarayonida avval qiziqish uyg‘otib, motivatsiya berib, so‘ngra raqobat muhiti yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg‘otiladi va albatta rag‘batlantirish amalga oshirilsa ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo‘lsa ulardan birini o‘rnak bo‘luvchi

inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga etishni yo'lga qo'yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo'lardi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.<sup>132</sup>

Ta'limning innovatsion shakllari. Zamonaviy sharoitda tinglovchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.<sup>133</sup>

## **MUNOZARA**

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Mutaxassislar fikricha, innovatsion elektron darslik inson aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni eslab qolish va bu ma'lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assotsiatsiyasi orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko'plab statistik va dinamik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan va umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo'lgan murakkab o'quv materiallari tizimidir: video, bajariladigan dastur va animatsiya. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

<sup>132</sup> Mohigul Olimjon qizi Shamsiyeva. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 December 2021 / Volume 2 Issue 12.

<sup>133</sup> Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар / Амалий тавсиялар. – Т.: "Истеъдод" жамғармаси, 2008. – 180 б.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatini ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori.
3. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-sonli Farmoni tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018-yil 28-dekabr).
5. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. - 2004. - №2. - С. 110-114.
6. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. - 2003. - №10. - С. 51-55.
7. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентност учителя. // Педагогика. - 2001. - №10. - С. 56-61. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. - 2003. - № 2. - С. 58-64.
8. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. - М.: “Гардарика”, 2004. - 528 с.
9. Ximmataliev Do'stnazar Omonovich. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMI. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2020, 7 (92).

10. TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi,, p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.n. M.Usmonboeva, p.f.n. M.Mirsolieva. “INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK”. O'QUV-USLUBIY MAJMUA. Toshkent - 2016.
11. Innovation in American Government: Challenges, Opportunities, and Dilemmas. Brookings Inst Pr. 1997 yil 1-iyun. ISBN 9780815703587.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. - T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 169-bet.
13. Mohigul Olimjon qizi Shamsiyeva. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 December 2021 / Volume 2 Issue 12.
14. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. - T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. - 180 b.